

# MUSO

## payg'ambar qissasi



*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.*

**NUUR**

TARJIMONLAR  
GURUHI

# MUSO


## payg'ambar qissasi




Özkan Öze

**Rassom:** Sevgi İçigen

*Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.*





**Minglarcha yillar avval edi...**

**Misrda yashagan Isroil o'g'illari uchun hayot ancha qiyin edi.**

**Chunki qirol Fir'avn ularni qul kabi ishlatar edi.**

**U o'ta ketgan bir zolim odam edi.**

**Isroil o'g'illarini bu zulmdan faqat bir – «Payg'ambar» chiqibgina qutkara olardi.**

**Buning uchun ular Allohga duo qilardilar, yangi bir payg'ambar yuboriladigan kunni intizorlik bilan kutishardi.**

**Kunlar, oylar va yillar shu zaylda o'tib borar edi.**

Kunlarning birida Fir'avnning kohinlari unga bir xabar keltirishdi. «Ey ulug' Fir'avn! Isroil o'g'illari orasida bir o'g'il farzand tug'iladi va u seni saltanatingni yiqitadi».

Buni eshitgan shafqatsiz Fir'avn darhol bir buyruq berdi: «Tug'ilgan har bir o'g'il bolani o'ldiring!» va Fir'avning askarlari bu shafkatsizlarcha chiqarilgan buyruqni so'zsiz bajarishdi.





Bani Isroil qavmi orasida yaqin orada bir chaqaloq kutayotgan bir ayol bor edi.

«Farzandim o'g'il bola bo'lib tug'ilsa nima qilaman», deb kecha-yu kunduz yig'lardi.

Bechora ayolning qo'rqqan ishi boshiga tushdi. Bir o'g'il farzand dunyoga keldi. Unga Muso deb ism qo'ydi. So'ngra bir sandiq topdi va uni sandiqning ichiga soldi. Keyin bola solingan sandiqni Nil daryosiga oqizib yubordi. Sandiq ajoyib bir qayiq kabi edi, daryoning ustida suzardi.

Alloh taolo xohlagan bir manzil tomon tezlik bilan oqib borardi.



Sandiq keta-keta Fir'avn saroyining bog'iga qadar yetdi va o'sha yerda to'xtadi.


Fir'avnning Osiyo ismli bir rafiqasi bor edi. Judayam oq ko'ngil bir ayol edi. Bolalarni judayam sevardi.

Bu qandayam bir go'zal chaqaloq ekan - deb sandiqda oqib kelgan bolaga qarab Osiyo judayam sevindi. Endi chaqaloq saroyda qoladigan bo'ldi va unga shaxsan Osiyoni o'zi qaraydigan bo'ldi.

Lekin unga avval bir sut-ona topishi kerak edi.

Isroil o'g'illari orasidan sut-onalikka bir ayol topib kelindi. Bu ayol Musoni o'zining onasi edi. Lekin bu sirni o'zidan boshqa hech kim bilmasdi.

Kunlar, oylar va yillar shu zaylda o'tib bordi. Muso ulg'aydi, yosh bir baquvvat yigit bo'ldi.





Muso saroyda yashar edi.

Lekin Isroil o'g'illarini ahvoliga judayam rahmi kelardi.

Bir kuni bir odamni Isroil o'g'illaridan bir bechorani kaltaklayotganini ko'rib qoldi. Bu nohaqlikka chidab turolmadi va u odamga bir musht tushirdi. Musodan musht yegan odam yerga yiqildi va shu zahoti o'lib qoldi.

Musoning bunday bir odamni o'ldirib qo'yishi katta jinoyat edi. Albatta jazosini olishi muqarrar edi. Saroy qo'rikchilari uni hamma joydan qidirishar edi. Muso Misrdan qochishga karor kildi. U borishi mumkin bo'lgan eng yaxshi joy Madyan o'lkasi edi. Darhol yo'lga chiqdi va yashirincha Misrni tark etdi.



U yerda yaxshi insonlar va Shuayb payg'ambar bor edi.


Ular Musoni va Muso ham ularni yaxshi ko'rib qoldi.

U yerda Shuayb payg'ambarni qizi bilan nikohlanib oila qurdi. Muso Madyan o'lkasida o'n yil yashab qoldi. O'ninchi yilning so'ngida oilasi bilan birgalikda Misr tomon yo'lga chiqdi.

Yo'l uzundan-uzun va mashaqqatli edi.

Havo xam juda-juda sovuk edi.





Muso tog'ning tepasida bir yorug'lik ko'rdi. Bu nima bo'lishi mumkin edi? Bo'lsayam bir gulxanning otashi edi. Muso gulxan otashidan olish uchun to'g'ri yorug'lik tomon bordi. Ammo nima edi u?

Bir daraxtning shoxlari yonayotgan edi. Ammo bu otash daraxtni yoqmayotgan bir otash edi.

«Xo'p, u holda bu narsa aslida nima edi?»

Birdan shunday bir ovoz eshitdi:  
«Shak-shubhasiz, men sening Robbingman! Darhol  
oyoq kiyimlaringni yechgin! Chunki sen muqaddas  
Tuva Vodiysidasan!».

Muso avvaliga judayam qurqqan bo'lsa-da, unga  
o'zini ovozini eshittirgan Alloh taolo ekanligini  
bildi.Va Alloh taolo Musoga o'sha yerda  
payg'ambarlikni berdi.





**Muso payg'ambarni Misrda akasi Xorun kutib oldi. Alloh tomonidan Xorunga ham payg'ambarlik berilgan edi.**


**Xorun payg'ambarning vazifasi Muso payg'ambarga yordamlashishdan iborat edi. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan birinchi ish - Fir'avnni huzuriga borib, uni Allohga iymon keltirishga da'vat qilish edi. Lekin bu unchalik ham oson ish emas edi.**


Muso payg'ambar bilan Xorun payg'ambar Fir'avn oldiga bordilar.

Unga Allohni va Allohning amrlarini tushuntirdilar.

«Isroil o'g'illarini qul kabi ishlatishdan voz kech, ularni qo'yib yubor yurtlariga qaytib ketsinlar», dedilar.

Fir'avn: «Modomiki, payg'ambarman deb da'vo qilyapsan, u holda bizga bir mo'jiza ko'rsatki, biz ham ishonaylik», dedi. Muso payg'ambar asosini, ya'ni qo'lidagi tayog'ini yerga tashladi. Aso Fir'avn va uning odamlarini ko'z o'ngida ajdarho kabi katta bir ilonga aylandi.






Muso payg'ambar ilonni ushladi. Ushlagan zahotiyiq ilon yana asoga aylandi.

Fir'avn ko'rganlari qarshisida lol-u hayron bo'lib qoldi. «Sen naqadar bir buyuk sehrgar bo'lib yetishibsan-ku!» dedi.

Muso payg'ambar «Men sehrgar emasman! Men Allohning payg'ambariman, hozirgi ko'rganlaring ham sehr emas – Allohning mo'jzasi edi,» - dedi. Ammo Fir'avn unga ishonmadi. Chunki ishonishni xohlamas edi.



Muso payg'ambarning dovrug'i butun mamlakatga yoyildi. Fir'avn bu ishdan juda g'azablandi.

Isroil o'g'illariga qilayotgan zulmini yanayam orttirib yubordi. Ularni Misrdan ketishlariga izn bermadi.

Muso payg'ambar esa o'z xalqini vataniga qaytarishni istayotgan edi.


Fir'avn va uning tarafdorlari o'z o'jarliklaridan voz kechmayotgan edilar. Alloh ularga daxshatli bir qurg'okchilik yubordi, ammo ular bu voqeadan saboq chiqarmadilar.


Qurg'oqchilik ortidan bir necha kun to'xtovsiz

yomg'ir yog'di. Muso payg'ambarga kelib

«Robbingga duo qil, yomg'ir yog'ishdan to'xtasin.

Shunda biz ham senga ishonamiz» deyishdi.





Muso payg'ambar duo qildi va yomg'ir to'xtadi.  
Ammo ular bergan va'dalarida turmadilar. Shunda  
katta bir chigirtka galasi ularning ustiga yopirila  
boshladi.

Misr xalqi yana Muso payg'ambarga «Biz uchun duo  
qil, senga ishonamiz» dedilar.

Muso payg'ambar Allohga yolvorib duo kildi.  
Chigirtka balosidan xalos bo'lishdi.

Ammo ular o'z so'zlarida turmadilar.


So'ngra hamma yoqni hashoralar bosib ketdi.

Hech bo'lmaganda bu safar aqlari ishlab qolar.

Yo'q... bu safar ham avvalgi holat takrorlandi.

«Senga so'z beramiz, bu safar bergan va'damizda  
turamiz, duo qil» deyishdi.

Ammo bergan va'dalarini yana ustidan chiqmadilar.





So'ngra hamma joyni qurbaqa bosib ketdi. Bu safar ham Muso payg'ambarga borib panoh so'radilar. U duo qildi. Alloh ularni qurbaqa balosidan qutqardi. Afsuski, bu gal ham Allohga va uning payg'ambariga iymon keltirishmadi. Fir'avnga ishonib, Isroil o'g'illariga zulm qilishda va zaiflarga ozor berishda hamda faqirlarni ezishda davom etaverishdi.

Bir kuni ertalab anhor suvlari qonga aylanganini ko'rdilar. Darhol Muso payg'ambar oldiga chopib bordilar, yalinib yolvordilar. Muso payg'ambar bu safar ham ular uchun duo qildi. Anhor va hovuzlardagi suvlari asl holiga qaytdi. Ammo ular baribir Allohga iymon keltirmadilar. Isroil o'g'illariga bu bo'lib o'tayotgan sinovlar ta'sir qilmas edi, faqatgina bu balolar Fir'avn va uning tarafdolariga ta'sir qilar edi.





Oxir oqibat, Muso payg'ambar va Isroil o'g'illari yo'l hozirliklarini ko'ra boshladilar. Endi Misrni tark etish vaqti kelgan edi.

Uzundan-uzun olomon Qizil dengiz tomon yo'lga ravona bo'lishdi.

Fir'avn buni eshitishi bilan aqldan oza yozdi.

Darhol askarlarini tayyorlab, ularni ortiga tushdi.


Isroil o'g'illari Qizil dengizning kirk'oqlariga yetib borganlarida Fir'avn ularga yetib oldi.

Endi nima bo'ladi? Oldilarida dengiz, ortlarida katta bir qo'shin turardi.

Muso payg'ambar hech ham qurqmasdi.

Allohning ularga beradigan yordamiga chin ko'ngildan ishonardi.





**Shunda Alloh unga «Asoyingni dengizga ur!»  
degan buyrug'ini eshitdi.**


**Muso payg'ambar asosini dengizga urdi va  
dengiz ikkiga ajraldi. Birdan dengiz orasida  
quruq yer paydo bo'ldi. Hammalari birdan  
mana shu yo'ldan o'ta boshlashdi.**

**Xuddi shu vaqtda Fir'avn va uning qo'shini  
ularga yetishib qolgan edi. Ko'rganlarini  
qarshisida og'izlari ochilib qoldi. Fir'avn  
qo'shiniga buyruq berdi: «Yuring ularni  
ortidan!»**

**Birgalikda dengizning ichida ochilgan  
yo'ldan Isroil o'g'illarining ortidan tushdilar.**

Lekin Isroil o'g'illari qarshi tarafga o'tar-o'tmas dengizda ochilgan yo'l yopilishni boshladi. Fir'avn va uning askarlari g'oyatda baland bo'lgan to'lqinlar orasida qoldi. Barchasi shu yerda suvga g'arq bo'lib halok bo'lishdi. Fir'avn o'lishini bilgani zamon baqirishni boshladi:«Men ham Musoning Robbisiga iymon keltiraman!». Lekin endi kech edi. Alloh uning bu iymonini qabul kilmadi.





**Chunki unga juda ham ko'p imkoniyat berilgan edi. Ammo u hech birini qadriga yetmadi. Fir'avnlkdan hech ham voz kecha olmadi va suv Fir'avnni ko'tarib o'zi mos bo'lgan joyga olib borib tashladi. Isroil o'g'illari esa yangi bir hayot boshladilar...**



TARJIMONLAR  
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur\_uz